THE IMPORTANCE OF DEVELOPING DESIGN COMPETENCES OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS ........ 394-398

*Zakirova Zulkhumor Zairjonovna*
THE ROLE OF TEACHER QUESTIONING IN DEVELOPING CRITICAL THINKING SKILLS AS A WAY TO INDEPENDENT LEARNING ........ 399-404

*Eshnazarov Murad Karimovich*
IMPROVING PROFESSIONAL PREPARATION OF FUTURE TEACHERS BASED ON THE HERMENEUTIC APPROACH ........ 405-410

*Menglikulov Khairulla Alikulovich*
DIFFERENTIAL APPROACH TO FORMING SWIMMING ABILITIES AND SKILLS IN FEMALE STUDENTS ........ 411-415

*Komilova Dildora Gulamjanovna*
DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMMUNICATIVE COMPETENCE OF ECONOMICS STUDENTS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING ........ 416-420

*Turdimurodov Dilmurod Yuldashevich*
ADAPTIVE REACTIONS OF ATHLETES TO TECHNICAL ACTIONS IN BOXING ........ 421-426

*Abdullayev Dilshod Xamidullo o'g'li*
CONDITIONS AND METHODS OF TEACHING ACTIVITY GAMES TO CHILDREN ........ 427-432

*Akhmedov Akmal*
IMPORTANT CRITERIA FOR PREPARING FUTURE PSYCHOLOGISTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN THE PROCESS OF HIGHER EDUCATION ........ 433-440

*Donisheva Gulroʻy Axrorqul qizi*
USE OF IT IN THE PROCESS OF LEARNING A FOREIGN LANGUAGE ........ 441-444

*Qurbonboyeva Dilfuza Shukur qizi*
FORMING COMMUNICATION COMPETENCES OF STUDENTS ........ 445-449

*Erkaboev Oybek Mukhammadzhonovich*
THE GROWTH RATE OF INDICATORS OF SPECIFIC COORDINATION ABILITIES OF CHILDREN AGED 6 YEARS ........ 450-456

*Abatov Jalgasbay Orinbaevich*
TEACHING FINE ART LESSONS IN CONNECTION WITH HISTORY ........ 457-463

*Akramjonova Feruza Akramjonovna*
INFLUENCE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT ON THE EDUCATIONAL PROCESS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION ........ 464-468

*Makhmudova Zulfiya Khomitovna*
ORGANIZATION OF PRESCHOOL EDUCATION AND FAMILY COOPERATION ........ 469-476

*Abduvasieva Mahmuda Khamidullo qizi*
UNIQUE ASPECTS OF THE CHINESE EDUCATION SYSTEM ........ 477-483

*Boboqulov Chori Urolovich*
PEDAGOGICAL PROBLEMS IN THE FORMATION OF MENTAL ABILITIES IN PRIMARY CLASS STUDENTS AND THEIR SOLUTION ........ 484-489

*Esanova Gulchehra*
PRINCIPLES AND METHODS OF PHYSICAL TRAINING OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS ........ 490-497

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 4 | Issiue 5 | 2024
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 22 April 2024
**Accepted:** 1 May 2024
**Published:** 10 may 2024

*Article / Original Paper*

# QUESTIONS OF GENESIS OF KELTAMINORA CULTURE

**Elmuratov, Bakhodir Abdugapparovich**
National Archaeological Center of the Academy of Sciences of Uzbekistan. Base doctoral student
elmuratov1985@bk.ru

**Abstract.** This article examines the history and monuments of the Keltaminor cultural community, one of the main Neolithic cultures of Central Asia. Organization of an international archaeological expedition to obtain new information about the culture of Keltaminor. It turns out that bone weapons are often overlooked.

**Keywords:** Keltaminor, Amudarya, Zeravshan, Kyzylkum, Paleolithic, Neolithic, Ayakagitma, Lavlakon technological, typological

# KALTAMINOR MADANIYATINING GENEZISI MASALALARI

**Elmuratov, Bahodir Abdugapporovich**
O'z RFA Milliy arxeologiyasi markazi, tayanch doktorant

**Annotatsiya. Mazkur maqolada** Markaziy Osiyo neolitining asosiy madaniyatlaridan biri Kaltaminor madaniyati jamoalari tarixi, yodgorliklarni qamrab oladi. Kaltaminor madaniyatiga oid yangi ma'lumotlarni, xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tashkil qilinishi. Suyakdan ishlangan qurollar ko'pincha e'tibordan chetda qolib kelganligi ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Kaltaminor, Amudaryo, Zarafshon, Qizilqum, Paleolit, Neolit, Ayakagitma, Lavlakon texnologik, tipologik

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I5Y2024N02

O'zbekiston mustaqillikni ilk yillarida ajdodlarimizni tosh davri makon va topilmajoylarini o'rganish ishlari keng ko'lamda boshlab yuborildi shulardan biri Kaltaminor madaniyatining yangi yodgorliklari topib o'rganish. Ana shunday yodgorliklardan biri Aykagitma makonidir. U 1995-yili O'zbekiston-Polsha xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan dala qidiruv ishlari natijasida yangi madaniy qatlamlari yaxshi saqlanib qolgan arxeologik yodgorlik topildi va tadqiqot ishlari yetti yil davom etdi. 2002-yili Kaltaminor madaniyatini o'rganish uchun O'zbekiston-Fransiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tashkil qilindi. Bu ekspeditsiyaning tadqiqot doirasida Zarafshon qadimiy quyi oqimlari, yaqin ko'l va daryolar, vohaning cho'l atrof-muhit zonalarida mahalliylashgan Kaltaminor yodgorliklar guruhi o'rganildi. Bu vohalardagi tadqiqotlar tufayli ko'plab neolit yodgorliklari, jumladan, Darbozaqir 1 va 2 makonlari aniqlandi[1] . Shunday qilib, Kaltaminor madaniyati jamoalari O'rta Osiyo va Janubiy-G'arbiy Qozog'iston hududlarida tarqalib yashaganliklari ilmiy isbotlandi. Kaltaminorliklar egallagan hudud va tarixiy davrni hisobga olib, arxeologiya fanida Kaltaminor tarixiy-madaniy jamoalari (Keltaminarskaya istoriko-kulturnaya obshnost)

tushunchasi kiritilgan. Ushbu madaniyatning ilk bosqichlari tag qismi qabariq, naqshlarga boy, rangli va chaplama boʻlgan sopol idishlar, yertoʻla tipidagi kichik uylar va plastinali industriyasi bilan xarakterlanadi[2]. 1957-yilda A.V.Vinogradov Kaltaminor madaniyati yodgorliklarini xronologik jihatdan ilk va soʻnggi davrlarga ajratadi. Yana ushbu muallif Zarafshon daryosining Qizilqum oralab oqqan Daryolisoy oʻzanining Ayakagitma hududida madaniy qatlami yaxshi saqlangan boshqa bir yodgorlikni topib, qazishmalar oʻtkazdi. A.V.Vinogradov Kaltaminor madaniyati yodgorliklariga oid yangi arxeologik komplekslar tahlili asosida uning Daryolisoy bosqichi mavjud ekanligini ilmiy asosladi va uning davriy sanasi mil.av. V mingyillikka tegishli degan xulosaga keldi[3] .

A.V.Vinogradov Turkmaniston hududidan oʻtgan asrning 70-yillarida topilgan va Amudaryo quyi oqimining oʻng qirgʻogʻida joylashgan Tumek-Kichijik qabristonini Kaltaminor madaniyati bilan bogʻlaydi. Yodgorlik neolit davri uchun noyob va muhim dafn inshootidir. Qabrlar yakka holda boʻlib, tubi bir yorma qilingan, marhumlar chalqanchasiga yotqizilgan, qoʻllari yon tomonda, baʼzi jasadlarda oxra qoldiqlari qayd etilgan. Marhum bilan birga kam boʻlsa-da tosh qurollar va sopol buyumlar qoʻyilgan, Ular Kaltaminor yodgorliklari kompleksi bilan oʻxshashdir[4] . Bu yodgorlikda qabrlar tuzilishi oʻra tipidagi goʻr bilan yorma goʻrni eslatadigan konstruksiyani beradi.

Oʻtgan asrning 90-yillaridan boshlab Kaltaminor madaniyatiga oid Ayakagitma yodgorligida turli fan sohalari (paleobotanika, arxeozoologiya, polinologiya, mikroiqlim, geologiya, sedimentologiya, mikromorfologiya, topografiya, GIS) boʻyicha 40 ga yaqin mutahassislar izlanishlar olib borishdi. Ayakagitma makonini ham Kaltaminorning klassik yodgorliklari safiga kiritish mumkin. Ushbu makon nafaqat hayvonlarni xonakilashtirish, balki Kaltaminor madaniyatining sanasini 700 ming yilga qadimiylashtirdi.Kaltaminor madaniyati Markaziy Osiyo arxeologiyasida oʻziga xos oʻrin egallaydi. Mazkur madaniyatning dastlabki oʻrganilgan yodgorliklaridan biri Jonbosqalʼa-4 makonidir. Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi rahbari S.P.Tolstov tomonidan 1939 yil Kaltaminor madaniyati tushunchasi fanga kiritilgan[5] va tabiiyki, bu hududlardan topilgan boshqa barcha neolit davri yodgorliklari Jonbosqalʼa-4 materiallari bilan taqqoslanib qiyosiy oʻrganilgan. Oʻrta Osiyoning boshqa neolit davri madaniyatlaridan farq qiladigan Kaltaminor madaniyati yodgorliklari Xorazm arxeologik ekspeditsiyasining uzoq yillar davomidagi tadqiqot obyekti boʼlgan.Ushbu tadqiqotlar natijasida shu davrga oid Uzboy boʻylari[6], Sariqamish[7], Xorazm hududi[8], Qizilqum[9] va Zarafshonning quyi oqimida[10]koʻplab makonlar ochilgan va oʻrganilgan. Bu izlanishlar tufayli Kaltaminor madaniyati jamoalari Oʻrta Osiyo va Janubi–Gʻarbiy Qozogʻiston hududlarida tarqalib yashaganliklari ilmiy isbotlangan va kaltaminorliklar egallagan hudud hamda tarixiy davr arxeologiyada Kaltaminor tarixiy-madaniy jamoalari tushunchasi bilan fanga kiritilgan.

Kaltaminor madaniyatining oʻrganilishida S.P.Tolstov, A.V.Vinogradov, M.A.Itina, Oʼ.I.Islomov, K.Shimchak, F.Brunet va boshqalarning xizmatlari kattadir.Kaltaminor madaniyatiga oid yangi yodgorliklar topib oʻrganilmoqda. Ana shunday yodgorliklardan biri Ayakagitma makonidir. U 1995-yili Oʻzbekiston-Polsha[11] xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan topildi va tadqiqot ishlari oʻn yil davom etdi. Tadqiqot natijalari Kaltaminor madaniyatiga oid yangi maʼlumotlarni berdi. Soʻngra 2006-yilda Kaltaminor madaniyatini oʻrganish uchun Oʻzbekiston-Fransiya[12] xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tashkil qilindi. Bu ekspeditsiyaning tadqiqot doirasida Zarafshon daryosining qadimiy quyi oqimi, unga yaqin koʻl

va daryolar, vohaning cho‘l zonalarida mahalliylashgan Kaltaminor yodgorliklari guruhi o‘rganildi[13].

Hozirda Kaltaminor madaniyati uch bosqichga bo‘linadi. Uning ilk bosqichi Daryolisoy bo‘lsa, Jonbosqal’a-4 gullagan davri, Saksovul yoki Qamishli esa yakuniy bosqichidir.

Kaltaminor madaniyatiga oid yodgorliklar hozirda butun Qizilqum (Amudaryo va Zarafshonning eski o‘zanlarini ham qamrab oladi), Amudaryoning o‘rta va quyi oqimi chap sohillarida, Uzboyda, Ustyurtda va Qozog‘istonning qator rayonlarida keng tarqalgan. Kaspiybo‘yining ayrim komplekslarini ham Kaltaminor madaniyatiga kiritish mumkin[14].

Tabiiyki, bunday katta hududlarda madaniyatning to‘liq bir xilligi kuzatilmaydi. Katta o‘xshashlikni tosh buyumlarda kuzatish mumkin, garchi ularda ham ayrim o‘ziga xos mahalliy tafovutlar kuzatilsa-da. Yanada yorqinroq ular sopol idishlarda, ularning shakllarida, naqshlarida va taqinchoqlarda kuzatiladi.

Materiallarni qiyosiy tahlillari bu ulkan hududda topilmalari bir tomondan barqaror umumiy belgilarga, ikkinchi tomondan, madaniy xususiyatlarning barqaror belgilariga ega guruhlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu guruhlar — mahalliy arxeologik madaniyatlar, aftidan, madaniyati, xo‘jaligi, hayot tarzi jihatdan yaqin yoki qardosh qabilalarning arxeologik jihatdan rayonlashuvining aks etishi hisoblanadi. Hozirda Kaltaminor (yoki Oqchadaryo), Quyi Zarafshon va Lavlakon madaniy guruhlari ajratilgan.

Adabiyotlarda Kaltaminor madaniyati alohida etnik va til guruhiga oid jamoalardan tarkib topganligi borasida ham fikrlar mavjud[15] . A. V. Vinogradov Qizilqumning Janubi-G‘arbiy hududlarida keng ko‘lamda ish olib borib, Kaltaminor madaniyatiga oid yangi yodgorliklarni topib o‘rgandi. Kaltaminor madaniyatini mahalliy variantlarga ajratish, ularni xronologik jihatdan davrlashtirish muammolari ham tadqiqotchilar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Kaltaminor madaniyati yodgorliklarini uzoq yillar o‘rgangan A. V.Vinogradov uni uchta hududiy variantlarga (Oqchadaryo, Uzboy va G‘arbiy Qozog‘iston) ajratadi. U Qizilqum guruhiga kiruvchi yodgorliklarni ham alohida variantga ajratilishi mumkinligini ta’kidlagan[16] . Keyinchalik quyi Zarafshon varianti ham ajratilgan bo‘lib, asosli ravishda Tuzkon guruhi nomini olgan.Kaltaminorning ichidagi hududiy tafovutlardan tashqari, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmanistonda Kaltaminorga oid deb topilgan yodgorliklarda sinchkov tadqiqotlar o‘tkazilganidan keyingina, ularni ushbu madaniyatga bog‘lash talab qilinadi[17].

Biroq Kaltaminor madaniyatining genezisi masalasi hozirgacha jumboqligicha qolmoqda. Bu haqda turli xil fikrlar ilgari surilgan. Agar Kaltaminorning eng qadimgi belgilari mahalliy kelib chiqish ildizlariga ega bo‘lsa, u Zarafshon vohasida shakllandimi, ayniqsa, er. av. VII ming yilliklarda? Bundan tashqari, er. av. IV ming yilliklarda Kaltaminor tipidagi kamon o‘qlari O‘zbekistonda qayerdan paydo bo‘lganligi masalasi muammolidir. Quyida biz Kaltaminor madaniyatining klassik yodgorligi Ayakagitma makoni quyi qatlamlari tosh industriyasini hamda Samarqand so‘nggi paleolit madaniyati komplekslarini texnologik va tipologik tadqiq qilish asosida qo‘lga kiritilgan ayrim dalillarni keltirib o‘tmoqchimiz.

Hozirda Kaltaminor madaniyatining kelib chiqishi masalasida unga chaqmoqtoshli industriyali baliqchi-ovchi jamoalar asos solgan, degan fikrlar ustuvor bo‘lmoqda[18]. Ta’kidlash joizki, Kaltaminor madaniyati mahalliy mezolit davri jamoalari asosida shakllangan va rivojlangan. Ammo O‘rta Osiyoda mezolit davri hali yetarli darajada o‘rganilmaganligi uchun bu masala o‘zining to‘liq yechimini topgani yo‘q. Ma’lumki, O‘zbekistonda so‘nggi paleolit va

mezolit davri yodgorliklari oʻrtasida miqdoriy disproportsiya mavjud. Buning sababini A.I.Krivoshapkin soʻnggi paleolitga oid materiallarning xato ravishda mezolit davri bilan sanalab yuborilganligida, deb hisoblaydi[19].

Ta’kidlanganidek, Kaltaminor madaniyatining kelib chiqish ildizlari masalasi koʻplab maxsus sinchkov hamda zamonaviy tadqiqotlarni talab qiladi. Ayniqsa, bu madaniyatning aksariyat yodgorliklarida madaniy qatlamlar saqlanmaganligi va oqibatda stratigrafik ketma-ketlikning mavjud emasligi masalani yanada murakkablashtiradi.

Fikrimizcha, Kaltaminor madaniyatining shakllanishida Samarqand soʻnggi paleolit madaniyati jamoalari asos solgan deyish uchun ham ayrim dalillar mavjud. Masalan, Kaltaminorning ilk bosqichiga oid deb topilgan Ayakagitma makoni quyi qatlamlari tosh industriyasi uchirindilar chaqmoqlab olish (53,8 %) texnologiyasida, garchi ushbu uchirindilarga ikkilamchi ishlov berilmagan boʻlsa-da, Samarqand makonida mavjud an’analar kuzatiladi. G.F.Korobkovaning aniqlashicha[20], Samarqand soʻnggi paleolit makonida uchirindilarni keng va tekis zarb maydonchali va distal qismlari yupqa va oʻtkir qilib chaqmoqlab olish an’anasi hukm surgan.

Bundan tashqari, Quyi Zarafshon vohasida aniqlangan 60 dan ziyod Chorboqti topilmajoylari materiallari shubhasiz, tosh davrining turli bosqichlariga oid. Ular orasida faqat va faqat soʻnggi paleolit davri bilan sanalanishi mumkin boʻlgan tosh buyumlar: karane, amyuzo, mikromyuzo va h.k. tipdagi qirgʻichchalar uchraydi. Ushbu tosh buyumlar tosh davrining keyingi bosqichlari uchun xos emas.

Ta’kidlash joizki, ishonarli absolyut sanalarning mavjud emasligiga qaramasdan, yuqori sanab oʻtilgan qirgʻichchalar, shuningdek, mezolit va neolit davrlarida keng tarqaladigan tirnoqsimon mikroqirgʻichchalar Samarqand soʻnggi paleolit madaniyatiga kiritilgan komplekslarda tarqalgan.

Aftidan, Samarqand botigʻini soʻnggi paleolit davrining ikkinchi yarmida egallagan jamoalar bir necha yuz yilliklar ichida Zarafshonning quyi oqimlari va ehtimol, Qizilqum hududlariga keng tarqalgan. Ushbu soʻnggi paleolit jamoalari Kaltaminorga asos solgan va nisbatan qisqa vaqt davom etgan mezolit davri jamoalarining paydo boʻlishiga sababchi boʻlgan.

Kaltaminor madaniyatiga kiritilgan yodgorliklarning ayrimlari xususida quyidagilarni aytish mumkin: fikrimizcha, ayrim kaltaminor tipidagi tipik yoki atipik va oʻxshatib yasalgan (podrajanie) kamon oʻqlarini hisobga olmagan ma’qul. Negaki, umumiy kelib chiqishidan yoki lokal an’analarning mavjud boʻlganligidan qat’iy nazar, ushbu jamoalarning oʻz sotsial tashkilotlari va boshqaruv tizimlari mavjud boʻlganligini hisobga olgan holda aytish mumkinki, ushbu jamoalar yoki jamoa birlashmalari oʻrtasida ekologik makonlar yoki iqtisodiy obyektlar uchun kelishmovchiliklar va oʻzaro nizolar boʻlib turgan. Hindular tarixidan ma’lumki, bunday hollarda ikki qabilaning oʻrtasiga nifoq solish uchinchi qabilaning manfaatlariga mos kelgan. Buning sinalgan usuli ta’kidlangan ikki qabilalardan birining “tashrif qogʻozi”ga aylanib ulgurgan kamon oʻqlarini oʻxshatib yasash va bunday oʻq yordamida ikkinchi qabila vakillariga xufiyona hujum uyushtirish katta samara bergan. Shu nuqtai-nazardan ayrim oʻxshash kamon oʻqlarining komplekslarda uchrashi madaniy birlik haqida gapirish imkonini bermasligi ham mumkin.

“Neolit davri aholisining iqtisodi avval boshdan shoxli hayvonlarni, qoʻy, echkilarni, choʻchqalarni koʻpaytirishga qaratilgan boʻlgan. Shuningdek, xoʻjalikda tuya va otlar ham

muhim rol oʻynagan. Bu hayvonlar 9-ming yillikdan boshlab xonakilashtira boshlangan. Bu holat Oʻrta Osiyo neoliti borasidagi qarashlarimizni anchayin oʻzgartirib yuboradi”[21] .

Neolit davri madaniyatlari haqida gapirganda suyakdan ishlangan qurollar koʻpincha e’tibordan chetda qolib kelmoqda. Masalan, Sazogʻon madaniyatida uchraydigan shoxli hayvonlarning naysimon suyaklaridan silliqlanib ishlangan suyak bigizlardan bir donasi Jonbos 4 makonida ham uchraydi. Ta’kidlash joizki, bunday suyak qurollardan bir nechtasi nisbatan yaqindagina ochib oʻrganilayotgan Toʻda-1 gʻoridan ham topilgan. Biroq tilga olingan yodgorliklar yoki madaniyatlarda oʻxshashliklardan koʻra tafovutlar koʻpchilikni tashkil qiladi. Fikrimizcha, Markaziy Osiyoning neolit davri madaniyatlari haqida gapirganda togʻli, togʻoldi va tekislik madaniyatlariga ajratish maqsadga muvofiq boʻladi. Negaki, ushbu uch xil paleogeografik sharoitlarda ekologik sharoitlar turlicha boʻlgan. Biroq bunday oʻxshash ekologik sharoitlarda ham paleoiqtisod turlicha boʻlishi mumkinligi kuzatilmoqda. Masalan, togʻli hudud neolitiga kiritilgan Janubiy Oʻzbekistondagi Toʻda-1 va Qaynar-Kamar yodgorliklarida makro hamda mikro industriya birgalikda uchraydi. Ammo ushbu yodgorliklarning makroindustriyasi orasida Hisor togʻli neolit madaniyatidagi singari chopper va choppinglar uchramaydi[22].

Ayrim mutaxassislar Sazogʻon madaniyatining kelib chiqish ildizlarini Qizilqum hududi mezoliti bilan bogʻlaydilar[23]. Biroq Sazogʻon madaniyati Qizilqum mezolitidan koʻra koʻproq Janubiy Oʻzbekiston hududi ilk neolit davri komplekslariga oʻxshashdir (Qaynar-Kamar va Toʻda-1 gʻor makonlari).

Yuqorida keltirilgan qisqacha rakursdan kelib chiqib, Kaltaminor madaniyatini oʻrganishda quyidagi muammolar yuzaga keldi:

Kaltaminor madaniyatining barcha yodgorliklarini yangi zamonaviy tadqiqot usullari yordamida qayta tadqiq qilish zarurati tugʻildi, negaki oʻtgan asrda komplekslarni oʻrganishda foydalanilgan usullar eskirdi. Materiallarni chuqur tahliliy tadqiq qilish va avvalgi yuzaki qiyosiy tahlillardan voz kechish zarur.

Texnokomplekslarni zamonaviy usullar yordamida oʻrganish tadqiq qilinayotgan industriyalarning madaniy-davriy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi (ayniqsa, gap Kaltaminorning aksariyat aralash va absolyut sanalash imkonsiz komplekslari haqida borganda).

Xullas, Kaltaminor madaniyati yodgorliklarini oʻrganish oʻtgan XX asrning 80-yillaridan buyon davom etmoqda. Bu davr mobaynida Markaziy Osiyoning Joytun, Xisor, Markaziy Fargʻona va Shimoliy Qozogʻiston neolit davri yodgorliklari bilan bir qatorda, keng qamrovli oʻrganilmoqda. Mazkur madaniyatning paydo boʻlishi, tarqalishi, rivojlanish bosqichlari, xoʻjaligi (xonakilashtirish orqali chorvachilik), moddiy madaniyati (sopol va tosh buyumlar, oʻziga xos payanoklar) haqida koʻplab ma’lumotlar toʻplangan, maqola va kitoblar e’lon etilgan. Biroq xali bu madaniyatni oʻrganishda ayniqsa, uning kelib chiqishi, geografik tarqalishi chegaralari, sanalashtirishida ayrim muammolar bor. Ayniqsa, keyingi yillarda xorijlik hamkorlar bilan ma’lum ishlar amalga oshirildi. Yurtimizda va xorijda qoʻllanilayotgan zamonaviy uslub va ishlanmalar yordamida ma’lum ijobiy natijalarga erishilmoqda. Chunki Kaltaminor tarixiy-madaniy birligi geografik jihatdan choʻl dashtlar (Rossiya, Ural), eng qadimgi dehqonchilik vohalari (Turkmaniston va Oʻzbekiston), togʻli va togʻoldi hududlari (Tojikiston va Afgʻoniston) tutashgan chorrahada joylashgan. Bu holat Kaltaminor madaniyatini oʻrganish naqadar ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Yaqin kunlargacha ushbu

hudud muste davri odamlari tomonidan oʻzlashtirilganligi, soʻnggi paleolit davri yodgorliklarining deyarli uchramasligi va neolit davri populyatsiyalari tomonidan keng oʻzlashtirilganligi haqidagi qarashlar ustun boʻlib keldi. Bu yerdagi neolit davriga oid Kaltaminor madaniyatining kelib chiqishi aniqlanmasdan qolmoqda edi.

Nima boʻlganda ham hozirgi bilimlar darajasida aytish mumkinki, Kaltaminor madaniyatining kelib chiqishi okulturatsion emas, balki mahalliy avtoxton ildizlarga ega.

**Адабиётлар/Литература/References:**


1. Исламов У.И. Кельтеминарская культура на Махандарье. // НРС. Ташкент. 1961.-С. 38.;
2. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья // ТХАЭЭ. XIII. М., 1981. -С.114.
3. Виноградов А.В. К вопросу о южных связах кельтеминарской культуры. // СЭ. № 1. М., 1957.-С. 44.
4. Виноградов А.В., Итина М.А., Яблонский Л.Т. Древнейшее населения низовьийАму-Дарьи. Археолого-палеантропологическое исследование. М., 1986. -С. 35.
5. Толстоа С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М., 1962. -С. 27.
6. Итина М.А. Памятники первобытной культуры верхнего Узбоя //ТХААЭЭ. Т. 2. М.: 1958. -С. 37.
7. Толстов С.П., Кесь А.-С., Итина М.А., Андрианов Б.В. Низовья Аму-Дарьи, Сары-Камыш, Узбой. История формирования и заселения// МХЭ. 3. М., 1960. -С. 77.
8. Виноградов А.В. Новые материалы для изучения кельтеминарской культуры // МХЭ. Вып. 6. М., 1963. -С.36.
9. Вактурская Н.Н. О поездке в Южные Кызылкумы в 1955 г. МХЭ. Вып 1. М., 1959. -С.165.
10. Гулямов Я.Г. Археолгические работы к западу от Бухарского оазиса // ТИИА АН УзССР. Вып. 8. Т. 1956. -С.14.
11. Khudzhanazarov M., Szymczak K., BrunetF., Some Neolithic and Early Bronze Age Findsfrom Makhandaria Region // История Узбекистана в археологических и писменних истонниках. Ташкент, 2005. -P. 14.
12. Brunet F.Pour une nouvelle étude de la culture néolithique de Kelteminar, **O**uzbékistan// Paleorient. № 31/2. Paris. 2005. -P. 87-106.
13. Джўрақулов М.Д., Холматов Н.Ў., Хужаназаров М. 5-боб. Неолит-янги тош даври//Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. 1-жилд. Тошкент. 2014. -Б.45; -Б. 119.
14. Брюне Ф. О новом исследовании неолитической Кельтеминарской культуры // Археология и история Центральной Азии в трудах французских ученых. Т.1. Самарканд, 2014. -С. -С.69.
15. Исламов У.И. Неолитическая культура в низовьях Зарафшана. Автореф. дисс… канд.ист. наук. Л., 1963.-С. 16.
16. Виноградов А.В. Кельтеминарская культура. М.: Автореф. дисс… канд.ист. наук. М., 1957.-С. 11.
17. Джуракулов М.Д., Холматов Н.У. Мезолит и неолит Зарафшана. Ташкент, 1991. -С.17-23.
18. Виноградов А.В. К вопросу о южных связах кельтеминарской культуры. // СЭ. № 1. 1957. -С. 44
19. Кривошапкин А.И. Обирахматский вариант перехода от среднего к верхнему палеолиту на территории Центральной Азии. Автореф. дисс.....на соиск. ученой степени д.и.н. Новосибирск. 2012. -С. 40.

20. Коробкова Г. Ф. Трасологическое исследование в каменного инвентаря Самаркандской стоянки. (По материалам 1958—1960 гг.) // Палеолит и неолит СССР. // МИА. Т. 7 № 185. Л, 1972. -С. 168.
21. Szumchak K., Khujanazarov M. Exploring the Neolithic of the Kyzyl-KumsAjakagytma “the site” and other collection. Warshawauniversity 2006.-P.-77
22. Сайфуллаев Б.К., Жоу Синг, Ҳасанов М.Ҳ. Отчет о проделаннҷх работ Узбекско-Китайской экспедиции в 2018 году в гроте Тода 1 в Байсунтау. Самарканд. Архив ИАИ АН РУз. 2018. -С. 16.
23. Джуракулов М.Д., Холматов Н.У. Мезолит и неолит Зарафшана. Ташкент. 1991. -С.17-23.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 5 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).